GEOGRAFIYA VA INGLIZ TILI FANLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoldin o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi p.f.f.d (PhD)
Anvarov Asadbek Akramjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti geografiya kafedrasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada geografik bilimlardan foydalanish orqali maktab o‘quvchilarining ingliz tilidagi lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik-metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi geografik mazmunni ingliz tili ta’limi bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning til bilim va ko‘nikmalarini mazmunli hamda amaliy kontekstda rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Maqolaning maqsadi geografik terminologiya, matnlar, xaritalar, diagrammalar va amaliy topshiriqlardan foydalanishning lingvistik hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *geografik bilimlar, ingliz tili ta’limi, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, geografik terminologiya, geografik kontent, fanlararo integratsiya, maktab ta’limi.*

Kirish. Zamonaviy maktab ta’limida ingliz tilini o‘qitish o‘quvchilarning nafaqat lug‘aviy va grammatik bilimlarini, balki ushbu bilimlardan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. IELTS hamda CEFR yondashuvida ham til kompetensiyalari kommunikativ faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda qaralib, o‘quvchining til vositalaridan turli mazmuniy vazifalarni bajarishda foydalanishi muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili ta’limida o‘quvchilar uchun mazmunli va amaliy kontekst yaratadigan fan ma’lumotlaridan foydalanish alohida metodik ahamiyatga ega. Geografiya bunday mazmuniy manbalardan biri bo‘lib, hududlar, iqlim o‘zgarishi, aholi, tabiiy jarayonlar, xaritalar, diagrammalar va statistik ma’lumotlar kabi turli mavzularni qamrab oladi. Ushbu materiallar ingliz tilidan muayyan mazmunni tavsiflash, taqqoslash, tushuntirish va fikr almashishda foydalanish imkonini beradi. Geografik kontent lingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun ham turli imkoniyatlar yaratadi. Geografik terminlar lug‘at boyligini kengaytirsa, geografik matnlar o‘qib tushunish va akademik til bilan ishlashga xizmat qiladi. Xaritalar makon va joylashuvni ifodalovchi til birliklarini, statistik va grafik ma’lumotlar esa miqdor, taqqoslash hamda o‘zgarishlarni ifodalovchi leksik-grammatik konstruksiyalarni o‘zlashtirish uchun mazmuniy asos yaratadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Geografiya ta’limidagi tilning fan mazmunini o‘zlashtirish bilan bog‘liqligi ilmiy tadqiqotlarda ham qayd etilgan. Bundan tashqari, xaritani tavsiflash, hududlarni taqqoslash, geografik jarayonlarni tushuntirish, ekologik masalalarni muhokama qilish hamda loyiha va taqdimotlar tayyorlash kabi faoliyatlar o‘quvchilarning ingliz tilidan kommunikativ maqsadlarda foydalanishi uchun zarur xisoblanadi. Shu sababli geografik bilimlardan ingliz tili ta’limida maqsadli foydalanishning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlarini tizimlashtirish dolzarb ilmiy-metodik vazifa sifatida namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

IELTS imtihonida geografik mazmunning qo‘llanilishi va uning lingvistik-kommunikativ ahamiyati

T/R	IELTS	Geografik mavzu yo‘nalishi	Real Imtihondagi Misollar / Savollar	Lingvistik / Kommunikativ ahamiyati

1	**Listening** (Tinglab tushunish)	Map Labeling, Guide Lectures	Shahar yoki milliy bog‘ xaritasini tinglab to‘ldirish.	Yo‘nalish ko‘rsatish va fazoviy (spatial) tushunchalarni ifodalash kompetensiyasi.
2	**Reading** (O‘qib tushunish)	Scientific, Environmental	Muzliklarning erishi va okean oqimlari sababi. Cho‘llanish	Akademik matnlarni tahlil qilish, terminologik va leksik kompetensiyani oshirish.
3	**Writing Task 2 (**Insho yozish**)**	Urbanization, Immigration and emigration	Qishloqdan shaharga ko‘chish va uning infratuzilmaga ta'siri.	Sabab-oqibatni tushuntirish, muammo va yechimlarni yozma ravishda mantiqiy bayon etish.
4	**Speaking (**Og‘zaki nutq**)**	Places, Natural Environments	O‘zingiz yashaydigan hududdagi ekologik muammo haqida.	Erkin muloqot qilish, tavsiflash, o‘z fikrini og‘zaki va emotsional yetkazish

Geografiya ta’limida tilning fan mazmunini o‘zlashtirishdagi roli bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, geografik bilimlardan ingliz tili ta’limida lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish masalasi alohida metodik yondashuvni talab etadi. Xususan, geografiya ta’limidagi tilga oid tadqiqotlarning katta qismi matn, diskurs va yozma til, ayniqsa o‘qish ko‘nikmalariga yo‘naltirilgani aniqlangan. Mazkur holat geografik mazmunning ingliz tilini o‘qitish jarayonida qanday tizimli qo‘llanishi mumkinligi masalasini dolzarb qiladi. Geografik terminologiya, xaritalar, diagrammalar, statistik ma’lumotlar va geografik matnlar nafaqat yangi mazmunni o‘zlashtirish, balki lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik konstruksiyalarni kontekstda qo‘llash, axborotni tushunarli tavsiflash, taqqoslash, izohlash va fikr almashish uchun ham metodik manbaa vazifasini bajarishi mumkin. Biroq ushbu imkoniyatlarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar bilan bog‘liqligini yagona metodik tizim doirasida ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqotning maqsadi maktab ta’limida geografik bilimlardan foydalanishning o‘quvchilarning ingliz tilidagi lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik-metodik imkoniyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish va tizimlashtirishdan iborat.

Geografiya ta’limida tilning o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa ushbu mavzuning ikkinchi muhim ilmiy asosini tashkil etadi. Dalton-Puffer [3], Ruiz de Zarobe [5], Heidari va boshqalar [6], Coyle D [7], Cummins, J [8], Richards, J. C [9], kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tizimli adabiyotlar tahlilida o‘rta ta’lim geografiyasida til masalasiga bag‘ishlangan 38 ta empirik tadqiqot Web of Science, ProQuest va Scopus ma’lumotlar bazalari asosida tahlil qilingan.

Muhokama va natijalar. Mazkur tizimli sharh tadqiqotimiz uchun ikki jihatdan muhim. Birinchidan, u geografiya ta’limining o‘zida tilning fan mazmunini o‘zlashtirishga ta’sir qiluvchi muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Geografiyaga xos akademik til kundalik tildan farq qilishi sababli o‘quvchi geografik mazmunni o‘zlashtirish jarayonida maxsus terminlar, matn tuzilmalari va fan xususiyatiga ega bilimlarni chuqur o‘rganadi. Ikkinchidan, geografik mazmun asosida og‘zaki kommunikatsiya, fikr almashish, tavsiflash, taqqoslash, tushuntirish va taqdimot kabi faoliyatlarni yanada chuqurroq metodik jihatdan o‘rganish zarurligini namoyon bo’ladi.

Shuningdek, geografik mavzular: iqlim, turizm, atrof-muhit, aholi, hududlar va tabiiy geografik jarayonlar — turli darajadagi ingliz tili faoliyatlari uchun mazmuniy manba sifatida

foydalaniladi. Geografik mavzular asosida loyiha, taqdimot va boshqa o‘quv faoliyatlarini tashkil etish mazmunni o‘zlashtirish bilan til faoliyatini chuqurroq rivojlantirish imkonini beradi.

Biroq bugungi ta’lim jarayonida o‘quv fanlari mazmunining qayta taqsimlanishi, ayrim hollarda geografiya faniga ajratiladigan o‘quv soati vaqti hamda amaliy mashg‘ulotlar hajmining qisqarishi o‘quvchilarning geografik bilim va tushunchalarni egallashiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu holat bevosita ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki geografiya nafaqat alohida fan sifatida, balki ingliz tilida muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan mazmuniy va kontekstual manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar, ekologik muammolar, urbanizatsiya, migratsiya, aholi geografiyasi, transport, turizm va tabiiy ofatlar kabi mavzular zamonaviy ingliz tili darslari hamda xalqaro til imtihonlarida keng qo‘llaniladigan kommunikativ mavzular sirasiga kiradi. O‘quvchining ushbu mavzular bo‘yicha boshlang‘ich geografik tasavvuri yetarli bo‘lmasa, u ingliz tilidagi matnni tushunish, mavzu yuzasidan fikr bildirish, sabab-oqibatlarni izohlash, taqqoslash va dalillar keltirishda qo‘shimcha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, geografik bilimlarning qisqarishi faqat geografiya fanini o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammo emas, balki fanlararo integratsiya imkoniyatlarining torayishiga ham olib kelishi mumkin. Aksincha, geografiya va ingliz tili mazmunini uyg‘unlashtirish o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida geografik tushunchalarni o‘zlashtirish, ingliz tilidagi akademik va kasbiy lug‘atni boyitish hamda real hayotiy vaziyatlarda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili geografik bilimlarning ingliz tili ta’limidagi metodik qiymatini uch o‘zaro bog‘liq darajada ko‘rsatadi:

- geografik mazmun til birliklarini kontekstlashtiradi;
- geografik axborot lingvistik faoliyat uchun real mazmun yaratadi;
- geografik muammolar va ma’lumotlar kommunikativ faoliyatni tashkil etish uchun vaziyat yaratadi.

Shu asosda mazkur tadqiqotning keyingi bosqichida geografik kontentning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar bilan bog‘lanish mexanizmlarini metodik jihatdan tizimlashtirish hamda ularni maktab ingliz tili ta’limida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik modellashtirish metodi asosida geografik kontentdan foydalanishning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalar bilan bog‘lanish mexanizmi konseptual jihatdan ifodalandi. Mazkur model quyidagi ketma-ketlikka asoslanadi: **geografik bilim → geografik kontent → til manbaasi → o‘quv faoliyati → lingvistik va kommunikativ kompetensiya.**

Ushbu ketma-ketlikda geografik bilim boshlang‘ich mazmuniy asosni, geografik kontent esa ushbu bilimni ingliz tilidagi o‘quv faoliyatiga aylantiruvchi vositani anglatadi. Til manbbasi geografik mazmunni ifodalash uchun zarur bo‘lgan leksik, grammatik va terminologik birliklarni qamrab oladi. O‘quv faoliyati esa tavsiflash, taqqoslash, tushuntirish, savol-javob, muhokama, loyiha va taqdimot kabi faoliyatlar orqali tashkil etiladi. Natijada lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun metodik imkoniyatlar yuzaga keladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, geografik bilimlar ingliz tilini o‘qitishda nafaqat qo‘shimcha mazmuniy manba, balki o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Geografiya fanining iqlim, tabiat, ekologiya, aholi, migratsiya, urbanizatsiya, transport, turizm va global muammolar kabi mazmunlari ingliz tilida real kommunikativ vaziyatlarni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot davomida geografik bilim → geografik kontent → til manbbasi → o‘quv faoliyati → lingvistik va kommunikativ kompetensiya ketma-ketligi asosida shakllantirilgan kichik model geografiya va ingliz tili fanlari integratsiyasining metodik imkoniyatlarini tizimli ifodalashi aniqlandi. Ushbu modelda geografik mazmun ingliz tilidagi terminologiya va kommunikativ topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirilib, Reading, Listening, Speaking va Writing ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

IELTS hamda CEFR yo‘nalishidagi kommunikativ topshiriqlar tahlili geografik mazmunga ega mavzularning sezilarli o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xususan, ekologiya, iqlim, transport, turizm, urbanizatsiya, migratsiya, tabiiy resurslar va atrof-muhit muammolari kabi mavzular o‘quvchilardan nafaqat ingliz tilini bilishni, balki tegishli mazmuniy bilimlar asosida fikr bildirish, sabab-oqibatlarni tushuntirish, taqqoslash va dalillashni ham talab qiladi. Shu jihatdan geografik savodxonlik ingliz tilidagi kommunikativ faoliyatning mazmuniy asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shuningdek, geografiya faniga ajratiladigan o‘quv vaqti va amaliy mashg‘ulotlar hajmining qisqarishi fanlararo integratsiya imkoniyatlarining torayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli geografik mazmunni ingliz tili ta’limiga integratsiyalash o‘quvchilarning ikki yo‘nalishdagi kompetensiyalarini parallel rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, xaritalar, diagrammalar, infografikalar va real geografik ma’lumotlardan foydalanish ingliz tilini autentik va mazmunli kontekstda o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa. Umuman olganda, geografiya va ingliz tili integratsiyasi o‘quvchilarning fanlararo bilimlarini kengaytirish, akademik va geografik lug‘atini boyitish, mustaqil fikrlash hamda ingliz tilida dalillangan fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Shu bois geografik kontentdan maqsadli foydalanishga asoslangan yondashuvni geografiya va ingliz tili ta’limining integratsiyalashgan modelini ishlab chiqishda istiqbolli metodik yo‘nalish sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe.

2.Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe.

3.Dalton-Puffer, C. (2011). Content-and-language integrated learning: From practice to principles? *Annual Review of Applied Linguistics, 31*, 182–204.

4.Dalton-Puffer, C., & Smit, U. (2013). Content-and-language integrated learning: A research agenda. *Language Teaching, 46*(3), 337–358.

5.Ruiz de Zarobe, Y. (2025). Content and Language Integrated Learning (CLIL): An overview. *Language Teaching*, 58(1), 1–20.

6.Heidari, S., Feser, M. S., Scholten, A., Schwipppert, K., & Sprenger, S. (2023). Language in geography education: A systematic review of empirical research. *International Research in Geographical and Environmental Education*.

7.Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge: Cambridge University Press.

8.Cummins, J. (2008). BICS and CALP: Empirical and theoretical status of the distinction. In B. V. Street & N. H. Hornberger (Eds.), *Encyclopedia of Language and Education* (2nd ed.). New York: Springer.

BO‘LAJAK GEOGRAFIYA FANI O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARDA ETNOEKOLOGIK BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Mamatisakov Jaxongirmirzo Jamoldin o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi p.f.f.d (PhD)
Najmidinova Gavharxon Alijonovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini o‘quvchilarda etnoekologik bilimlarni rivojlantirishga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari, uning tuzilishi va pedagogik shart-sharoitlari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashga tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy va etnopedagogik yondashuvlar asosida yondashish zaruriyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Etnoekologik bilim, geografiya ta’limi, bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy tayyorgarlik, metodik tizim, etnopedagogika, kompetensiya.*

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi insoniyat oldida turgan eng dolzarb global muammolardan biriga aylandi. Ushbu muammoni hal etishda yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni tabiatga ehtiyotkorona munosabat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi va O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Geografiya fani tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganuvchi asosiy fan sifatida o‘quvchilarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishda ulkan salohiyatga ega bo‘lib, xalqimizning asrlar davomida to‘plagan milliy an’analari, tabiat bilan uyg‘un yashash tajribalari va etnopedagogik merosi zamonaviy ekologik ta’lim bilan uyg‘unlashtirilganda yuqori samara beradi. Biroq maktab o‘quvchilarida etnoekologik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi; bu bevosita geografiya o‘qituvchisining kasbiy mahorati, tayyorgarligi va metodik salohiyatiga bog‘liq bo‘lgani bois, bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarini tayyorlash masalasi maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Hozirgi davrda global ekologik muammolarning keskinlashuvi, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning buzilishi insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biriga aylanmoqda. Bunday sharoitda yosh avlodni tabiatga ehtiyotkorona munosabat ruhida tarbiyalash, ularda ekologik madaniyat va dunyoqarashni shakllantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya jarayonini tubdan takomillashtirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.